

YASSAVIY KIM EDI

Rabbimqulova Go'zal Egamberdi qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
1-kurs talabasi

Annontatsiya: Ushbu maqolada barchaga ma'lum bōlgan Yassaviy ijodining o'rganilishidagi turli ziddiyatlar yoritilgan. Bugungi kundagi hamda bir necha davrlar burungi olimlarimiz shu bilan bir qatoda jahon olimlarining ham Yassaviy ijodi va uning muallifligi tōg'risida fikrlar bayon etilgan. Sho'rolar davridagi bosim ostida yozilgan maqolalar hamda bugungi kunda eski Turkiston yozuvchilarini qaysidir ma'noda musulmon tasavvuf allomalarini qoralab yoritilgan maqolalar tahlilidir.

Kalit so'z: tasavvuf, tanqidiy qarash, nuviy platonizm, pir, diniy-irfoniyl, falsafa, mafkura, buddizm, tariqat.

Bugungi kunda barchaga birdek tanish bo'lgan shuningdek O'zbekiston adabiyotshunosligi va tanqidi rivojida o'zining sermahsul ijodi bilan o'chmas iz qoldirayotgan Ibrohim Haqqulning "Oldingdan oqqan suvning qadri" maqolasidagi tanqidiy qarashlar, fikr -mulohazalar judayam o'rinli. Unda XII asrning yetuk tasavvuf ilmi sohibi Yassaviy hamda uning mualliflik masalalari shu jumladan "biz bugun shunday ulug' pirga munosib avlod bo'la oldikmi" degan qarashlar yoritilgan. Ibrohim Haqqul maqolasida aytib o'tgan Fitrat domlaning ham salbiy fikrlarini kengroq yoritish maqsadida uning maqolasini tahlil qilish hamda boshqalarga ham tanishtirish zarurdir. Ibrohim Haqqul "Fitrat domladek ulkan olimning ham hikmatlarda ifodalangan diniy-irfoniyl haqiqatlarga sinfiylik nuqtai nazaridan baho berishlari zo'ravon mafkura ko'ndalang qo'ygan majburiyat edi", deydi (1). Uning bu qarashi to'g'ri deb ola olamiz lekin har bir insonda har xil fikr uyg'onadi. O'sha davr muhiti, siyosati va ma'naviyatini biz yoshlar o'z nigohimiz bilan guvoh bo'lmasak-da yuqoridagi kabi turli maqolalarda, ko'plab kitoblardan o'qib tanishib chiqqanmiz. Shunga ko'ra ayta olamanki, sho'ro

hukumati turkiy faylasuflar, ayniqsa diniy-falsafiy siymolarimizni ijobiy baholab ommaga tanitishni qattiq tanqid qilgan. Buni sababini ko'p eshitganmizki, qaysidir millatni batamom qo'lga olib, uni bo'ysundurish uchun avvalo bu xalqning dinini yo'qotish zarur.

Manbaalarda yoritilganidek, Fitrad domladek jadidlarning barchasi diniy ilmlarni mukammal egallaganlar shu bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham maromiga yetkazishgan. Ular bu ilmlarni xalqqa nihoyatda ustalik bilan yetkazishni uddalashgan. Buni isboti sifatida Fitratning "Yassaviy kim edi" maqolasida ko'rish mumkin. Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi har bir ishga turli ko'z bilan qarash lozim, shunday ekan Fitrat domlaning ushbu asarini "ko'zbo'yamachilik", "chalg'itish" ya'ni o'sha qalts davr hukumatini e'tiborini boshqa narsaga qaratish deb baholasak ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Fitrat Yassaviyning she'rlarinigina o'z qarashlari orqali tahlil qilgan holos. Maqoladagi boshqa masalalar, "Devoni hikmat" ning shaxsan Yassaviyniki ekanligi aniqlanmaganligi salbiy baho emas aksincha bu hammaga birdek ma'lum. Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, Fitrat maqolasida Yassaviyning ijodini faqat qoralabgina qolmay shunday deydi, "Tuzuk, Yassaviyning tilga xizmati juda kattadir. U mundan yetti yarim asr burun turkcha she'rlar yozg'on, kambag'allarning dardlarini kuylagan. Uning asari tilimizning yetti yarim asrdan qolg'on bir nishonasi. U asar tilimizning yetti yarim asr burung'i hollarini, qoidalarini ko'rsatmak nuqtasidan juda muhimdir"(2). Bundan anglash kerakki, tanqid orqali asli tag ma'noli davat bilan o'sha davr ilmsiz, qoloq, qaram xalqqa Yassaviyni tanitish va unga qiziqishini uyg'ota olgan. Aynan mana shu maqola orqali kimlardur Yassaviyni ismini ilk bor eshtgandir, balki bir oz bo'lsada taniganlarga unga qayta qiziqib izlanishiga sabab bo'gandir.

E'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlardan yana biri, Yassaviyning tasavvufiy she'rlaridagi "tangri ishq" masalasini shunday deydi, "Nuviy platonizm" falsafasidan bizning tasavvufga o'tgan bu ishq masalasi Yassaviy hikmatlarida juda katta o'rin tutadi" (3). Manbalarda yoritilishicha "Nuviy platonizm" ruhiy najot, inson tabiati hamda samoviy va ruhni birlashtirish haqidagi falsafiy nazariya. Bu nazariya grek faylasufi Platon nomi bilan bog'lanadi va shu bilan bir qatorda bunga ters bo'lgan

qarashlar ham mavjud. Bizning tasavvufdagi ishq masalasi bu falsafadan olinmagan, bu haqda manbalarda keltirilmagan. Fitrat balki, Tasavvufda ilm yo'lga kirgan muridlar pirga inobat qilishi, ustoz etagidan tutib unga ergashishi jihatini buddizmga yo'ygan deyish mumkin. Fitratning Yassaviyni qoralagan jihatlaridan yana biri uning "tariqat" yo'lidir. Unga ko'ra ushbu yo'lga kirganlar uzlatga chekinishlari zarur. Bunday tariqatni sho'ro hukumati siyosati davridagi diniy ilmlardan cheklangan ilmsiz xalq qabul qila olmasdi ham. Bunga nisbatan shunday fikr bildiradi, "...Uning fikrlari, tirikchilik uchun, to'g'risi, tirik o'lmak uchun... xalqqa ko'rsatgan yo'llari, buddizmdan olib bizga yutdirmoq istagidagi dasturlar qat'iyan, ayniqsa yigirmanchi asrda, zararlidir" (4). Yana qo'shimcha sifatida Yassaviy maktablarini "Elimizga dunyodan, hayotdan uzoqlash, riyozat chekish fikrlari kabi buddizm qoldiqlarini islomiy bo'yovlar bilan bo'yab berishga mashg'ul bo'ldi", deya tavsiflaydi. Bunday deyishiga sabab oddiy xalq farzandlarini eski usul maktablaridan olib yangi usul maktablariga o'qishga berishlariga ko'proq turtki bo'lishini ko'zda tutganligi ehtimoldan holi emas.

Fitrat Yassaviy ijodining adabiy qiymatiga nazar solib uni o'z davridagi yetuk ustozlardan tahsil ko'rgan, ilmi inson deyishiga qaramay, uning hikmatlari vaznini, qofiyasini, uslubini soda xalq shoirlarining ijodi bilan tenglashtiradi. Xalq adabiyotlaridagi dostonlardan "Qissasi Ibrohim Adham", "Dostoni Zaynul Arab" kabi dostonlarga o'xshatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yassaviy kim edi. To'plab nashrga tayyorlovchi Boybo'ta Do'stqorayev. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 1994,
2. Ibrohim Haqqul. Oldingdan oqqan suvning qadri. 2013.
3. Edvard More. Neo-Platonizm. 2001 yil.
4. faculty.umb.edu.